

BRIFING



BRIFING

Termiz shahar hokimining birinchi o'rinbosari Elamanov G'ayrat Abdiyevich ishtirokida brifing o'tkazildi.

Mavzu: Shaharda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va ehtiyojmand aholini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar.

Muhtaram Prezidentimizning 2021 yil 3 dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-son Farmoni hamda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida, Termiz shahrida mavjud 37 ta mahallaga 107 nafar nomzod ro'yxati shakllantirildi va Respublika komissiyasi a'zolari tomonidan suhbatdan o'tkazildi hamda ushbu mahallalarga joriy qilingan Hokim

yordamchisi lavozimiga tajribali nomzodlar tanlab olindi.

Tanlab olingan Hokim yordamchilari joriy yilning 10 yanvaridan biriktirilgan mahallalarida o'z faoliyatini boshlashdi va bugungi kunga qadar ular tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, har bir Hokim yordamchilari tomonidan mahalladagi har bir xonadonga tashrif buyurgan holda, so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma ma'lumotlariga ko'ra shahardagi 37 ta mahallalarda 42 ming 200 ta xonadon, 53 ming 300 ta oila hamda 189 ming 630 nafar aholi istiqomat qiladi.

O'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra, 42 ming 200 ta xonadonlarning ma'lumotlari Respublika miqyosida keng foydalanilayotgan "Onlayn mahalla" platformasiga to'liq rasmiylashtirildi. O'rganilgan xonadonlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli 4 toifaga ajratib olindi.

Jumladan:

Birinchi toifaga – 3 ming 600 tasi (8,5%) "Iqtisodiy nochor" (xonadonlar daromadi kam, ishsiz a'zolari bo'lgan, o'z ishini boshlashga qiziqishi katta, shuningdek, daromad topishga, kasb o'rganishga harakat qilayotgan xonadonlar);

Ikkinchi toifaga – 22 ming 300 tasi (52,9%) "O'rta"

(Doimiy daromadga ega, qo'shimcha daromad topish istagi bor xonadonlar);

Uchinchi toifaga – 2 ming tasi (4,8%) "Ehtiyojmand" (Nogironligi

bor va kasal a'zolari bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj xonadonlar);

To'rtinchi toifaga – 14 ming 300 tasi (33,8%) "Namunali" (Iqtisodiy ahvoli yaxshi va o'ziga to'q xonadonlar) ajratib olindi.

Xokim yordamchilar tomonidan xonadonlarni xatlov o'tkazish jarayonida quyidagi muammolar aniqlandi:

- 1600 ta ishlash istagi mavjud mehnatga layoqatli ishsizlar; (bugungi kunga qadar 850 nafari ishga joylashtirildi)

- 432 ta kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qish istagi mavjud xonadon a'zolari; (bugungi kunda 240 nafar fuqarolar kasb bo'yicha o'qitilmoqda)

- 827 ta Tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan xonadon a'zolari; (birinchi chorak davomida xokim yordamchilar tavsiyasi bilan tadbirkorlikka istagi bor fuqarolarning 225 tasi "Yuridik", "185 tasi YaTT") bo'lib davlat xizmatlaridan ro'yxatdan o'tkazilib faoliyati boshlagan)

- 1480 ta jismoniy va yuridik shaxslar 49,9 mlrd so'm kredit olish uchun talabgorlar; (Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 2022 yil uchun 50 mlrd. 500 mln.so'm ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunga qadar axoli tomonidan 142 mlrd. 531 mln so'mlik 4503 ta arizalar kelib tushgan)

- Shundan: hokim yordamchilari tomonidan 20 mlrd. 530 mln so'mlik 709 ta arizalarga ijobiy tavsiyalar berilib 471 ta arizalarga 14 mlrd.

234 mln so'mlik kredit mablag'lari ajratilgan yillik rejaga nisbatan 28% bajarilgan.

- Hokim yordamchilari tomonidan 115 mlrd. 812 mln, 3609 ta arizalar rad etilgan bo'lsa 130 ta arizalar 4 mlrd. 602 mln ko'rib chiqish jarayonida)

- 261 ta fuqaro 1 mlrd. 576 mln so'm subsidiya asosida ishlashni istaganlar; (joriy yilning 4 oy davomi xokim yordamchilarning tavsiyasiga bilan jami 49 ta fuqaroga 156 mln.sum subsidiya ajratildi, ajratilgan mablaglar asosan sug'orish vositasi va issiqxonaga berilgan)

- 88 ta kooperatsiya asosida ishlashni istaganlar;

Muhtaram Prezidentimizning 2021 yil 23 avgustda "Surxondaryo viloyatida qulay investitsiya muhitini yaratish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbir to'g'risida"gi PQ-5228 son Qarori doirasida "Bir mahalla-bir mahsulot" tamoyili asosida kredit mablag'lari kooperatsiya shaklida shahrimizdagi 7 ta mahalla ya'ne "Manguzar", "Chegara", "Guliston", "Surxon Soxili", "Pattakesar", "Jo'yjanganl" va "Namuna" MFYlar tanlab olingan bo'lib, bunda 560 ta xonadonda 16 mlrd. 500 mln. so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan.

Misol uchun, Mazkur Qaror asosida Termiz shahridagi "Pattakesar" MFY Hokim yordamchisining faoliyati o'rganilganda, ushbu Hokim yordamchisi tavsiyasi bilan 7 ta xonadonga 140 dona asalari uyasi olib berilganligi, fuqaro Qurbonov Anvar va Avazov Abdurahmonlar bilan suhbatlashilganda, o'z faoliyatidan yilda ikki marotaba asal olishi, har bir asalari uyasidan o'rtacha 15 kgdan asal olishi yoki yillik 40 mln.so'm daromadga ega bo'lishi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, "Saxovat" mahallasida bugungi kunda "Abu Laziz Termiz Fayz" MChJ tomonidan tashkil etilgan parrandachilik va quyonchilik yo'nalishi bo'yicha tadbirkorlik sub'ekting faoliyati yo'lga qo'yildi va fuqarolarga kredit asosida naslli parranda va quyon yetkazib choralari ko'rilmogda.

Hozirgi kunda parvarishlanayotgan quyon va tovuq zotlarini kooperatsiya qilish istagida bo'lgan aholiga yetkazib berilishi ko'zda tutilgan.

Barcha hokim yordamchilari yillik ishlab chiqilgan ish reja asosida ish tashkil etib, kunlik aniqlangan muammo va takliflarni bo'yicha "yo'l xarita"ga kiritib borilmogda.

Hokim yordamchilariga ajratiladigan mablag'lar:

2022 yilda hokim yordamchilari tomonidan aholini tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, o'zini-o'zi band qilish va ish bilan ta'minlash uchun 128 882 mlrd.so'm mablag'lar ajratiladi;

- 50 mlrd 531 mln oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida imtiyozli kreditlar;

- 48 mlrd 620 mln xizmat sohasini rivojlantirish uchun kreditlar;

- 16 mlrd 500 mln "bir mahalla-bir maxsulot" tamoyili asosida ajratiladigan imtiyozli kreditlar;

- 13 mlrd 231 mln.so'm subsidiya mablag'lari;

Jumladan:

- 6 mlrd 204 mln.so'm bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasidan;
 - 1 mlrd 562 mln.so'm jamoat ishlari jamg'armasi mablag'lari;
 - 332 mln.so'm Fermer dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi mablag'lari hisobidan.
 - 1 mlrd 612 mln.so'm Mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun ;
- 3 mlrd 920 mln.so'm 3 ta daftar jamg'armalardan (sahovat va ko'mak jamg'armasidan 1 mlrd 395 mln.so'm, ayollar daftari 1 mlrd. 262 mln. so'm, yoshlar daftari 1 mlrd. 263 mln. so'm).

Ishga joylashtirish:

Hokim yordamchilarining tashabbusi bilan joriy yilning 4 oy davomida 3719 ta (reja 3404 ta) rejaga nisbatan 109,0% fuqarolar ishga joylashtirildi, shundan, yanvar oyida 509 ta (reja 481 nafar) rejaga nisbatan 105,8%, fevral oyiga 1 107 ta (reja 1 036 ta) rejaga nisbatan 106,8% mart oyiga 1 025 ta (reja 925 ta) rejaga nisbatan 110,0% va aprel oyida 1 078 ta (reja 962 ta) rejaga nisbatan 112,0% ish o'rinlari tashkil etildi.

Sohalar kesimida tahlil qilinganda:

1178 nafar o'zini o'zi band qilganlar

821 nafar har bir oila dasturi asosida ajratilgan kreditlarga yaratilgan

185 nafar Bandlikga ko'maklashish Markazi tomonidan jamoatchilik

52 nafar Bandlikka ko'maklashish davlat mablag'lari jamg'armasidan subsidiya

1626 nafar Legallashtirish "Yuridik va Korxona tashkilotlar"ga

225 nafar yangi tashkil etishgan yuridik shaslarga

185 nafar yangi tashkil etilgan YaTTlar hissasiga to'g'ri keladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!